

KO'HNA KESH TARIXIY GEOGRAFIYASI.

Mannonova Shaxnoza Shomurod qizi

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrası

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi

I kurs magistranti.

Annatatsiya. Ushbu maqolada sivilizatsiya markazi sifatida dunyo tomonidan tan olingan O'rta Osiyo hududi o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko'plab davlatlar uchun makon vazifasini o'tab bergan. Sug'd vohasining tarixini o'rganishda ko'hna Kesh tarixiy geografiası muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'd vohasining turli davrlarda siyosiy-ma'muriy jihatdan bo'linishi, shuningdek, Ko'hna Kesh tarixiy geografiası xususida ba'zi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Sug'd (Samarqand va uning atroflari), Janubiy Sug'd (Kesh va Naxshab) hamda G'arbiy Sug'd (Buxoro Sug'di), "Sug'd konfederatsiyasi", "Sug'd hukmdorliklari", "Sug'd mulkdorliklari".

Kirish. Sug'd vohasining tarixini o'rganishda ko'hna Kesh tarixiy geografiası muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'd vohasining siyosiy-ma'muriy jihatdan 3 ta yirik qismga – Markaziy Sug'd (Samarqand va uning atroflari), Janubiy Sug'd (Kesh va Naxshab) hamda G'arbiy Sug'd (Buxoro Sug'di) kabi alohida-alohida geografik tushunchaga aylanishida ular orasida dasht va cho'llar, tog', daryo kabi tabiiy geografik omillar sabab bo'lgan. Markaziy Sug'dda (Samarqand Sug'd) tarixiy-madaniy tumanlar o'rtasidagi turli aloqalarning xususiyatlari hamda tarixiy-madaniy jarayonlarning o'zgaruvchanlik holati, tarixiy-geografik joylashuvning mahalliy madaniyat rivojiga va etnik tarixi haqida ma'lumotlar bilan kengroq tanishish imkoniyati mavjud bo'lgan;

Sug'd tarixiy o'lkasi bo'yicha qariyb bir yarim asrdan beri ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, chop etilgan turli nashrlarda ushbu tarixiy o'lkaning siyosiy-ma'muriy bo'linishi to'g'risida tadqiqotchilar orasida farqli yondashuvlar borligi va bu holat hozirgi kunda ham davom etayotgani ko'zga tashlanadi. Xususan, bir guruh

tadqiqotchilar Sug‘d yoki Sug‘d o‘lkasi deganda, Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzalaridagi shimoli Ustrushona (Jizzax), janubi Baqtriya-Toxariston, g‘arbi Amudaryoning o‘rta oqimi hamda sharqi Toxaristonning shimoli-sharqi va Ustrushonaning janubi-sharqi bilan o‘ralgan, bugungi Panjikent tumani hamda Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarini o‘z ichiga olgan tarixiy o‘lkani tushunsalar, bir guruh tadqiqotchilar esa Buxoro vohasiga alohida tarixiy-geografik obyekt sifatida qarab, Zarafshon daryosining yuqori va o‘rta oqimidagi Panjikent, Samarqand va uning atroflari hamda Qashqadaryo vohasi (Kesh-Naxshab)ni Sug‘d o‘lkasi, deb qaraydilar. Keyingi o‘n yilliklarda esa ilmiy adabiyotda “Sug‘d konfederatsiyasi”, “Sug‘d hukmdorliklari”, “Sug‘d mulkdorliklari”, “Markaziy Sug‘d” degan tushunchalar qo‘llanilayotgani ko‘zga tashlanayapti¹.

Avvalo, aytib o‘tish kerakki, qadimgi yunon manbalarida “Sug‘diyona”, qadimgi fors manbalarida “Sug‘uda”, ilk o‘rta asrlarga tegishli arab, fors va boshqa tillardagi manbalarda esa “Sug‘d” nomi ostida tilga olingan ushbu tarixiy-geografik o‘lka nisbatan uzoq o‘lka xalqlari, masalan, Yunoniston (keyinchalik Vinzatiya) va Eron (Ahamoniylar, Parfiya, Sosoniylar) aholisi tomonidan markazi Samarqand bo‘lgan muayyan bir o‘lka sifatida tushunilgan. Ya’ni, Samarqand, Buxoro va Kesh-Naxshab vohalarini o‘z ichiga olgan hududlar “Sug‘d o‘lkasi”, deb bilingan. Ular Sug‘d o‘lkasining ichki ma’muriy-siyosiy tuzilishini yaqindan bilmaganliklari tufayli bu yerning aynan hududiy bo‘linishlarini to‘laqonli bera olishmagan. Aslida esa qadimda va ilk o‘rta asrlarda markazi Samarqand va Buxoro bo‘lgan alohida-alohida Sug‘d o‘lkalari, shu bilan bir qatorda “Janubiy Sug‘d”, “Qashqadaryo Sug‘di”, ya’ni Kesh va Naxshab kabi tushunchalar ham qo‘llanilayotgani ma’lum. Yoqut al-Hamaviy Samarqand Sug‘di va Buxoro Sug‘di borligi haqida ma’lumot beradi².

¹Бобоёров Ф. Турк хоконлиги даврида Суғд (бошқарув тизими) // Шарқшунослик, №11. – Т., 200. – Б. 119–129; Гойибов Б.С. Место владения Панч в конфедерации Согда (на примере раннего средневековья). Автореф. дисс. на соискание учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 2011; Гойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020. – Б. 7–10.

²Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. – С. 349; Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент, ART-FLEX, 2010. – Б. 73.

Markaziy Sug'd va Janubiy Sug'dni tog' hamda dashtlar ajratib turib, Samarqand va Kesh hukmdorliklarining qo'shnichiligi chamasi Zarafshon tog' tizmalarining janubiy hamda janubi-sharqiy etaklari orqali bo'lgan. Aftidan, Zarafshon tog'larining janubi-g'arbiy etaklari ham ushbu ikkala hukmdorlik orasidagi rustoqlar bo'lgan. Ya'ni, Zarafshon tog'ining g'arbiy etaklaridan joylashib, shimoldan janubga to'g'ri cho'zilgan hududlardagi bugungi kunda Oqsoy³, Sazag'on⁴, Sarig'ul, Jom⁵ deb ataladigan aholi maskanlari ilk o'rta asrlarda tarixiy Markaziy Sug'dga (Samarqand Sug'di, asosan bugungi Samarqand viloyati hududiga) qarashli bo'lib, Jom Markaziy Sug'd bilan Janubiy Sug'dning yirik hukmdorliklaridan biri Kesh orasidagi chegara hududni tashkil etgan.

Xulosa. Qaysidir davlat to'g'risida so'z yuritilar ekan, dastlab bu davlatning qachon tashkil topganligiga va uning hududi qayerlarni tashkil etganligiga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Bu esa bevosita tarixiy geografik hududlarni o'rganish bilan bog'liqdir. Markaziy Sug'dning Janubiy Sug'd, ya'ni Kesh va Naxshab bilan aynan qaysi hukmdorlik – mulkliklar yoki rustoq va qishloqlar orqali qo'shni bo'lganligi masalasi haligacha o'z yechimini topmay kelayotir. Sababi, na xitoy va sug'diy, na arab va forsiy tilli manbalarda bu borada batafsilroq ma'lumot keltirilmagan. Bu esa Sug'd tarixi bo'yicha izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilarning mazkur masalada aniq fikr bildirishlarini birmuncha qiyinlashtiradi. Fikrimizcha, Samarqand Sug'di va

³ Оқсой – Самарқанд вилоятидаги сой. Зарафшон тизмасидаги Қоратепа тоғининг шимолий ён бағридан бошланиб, шимоли-шарққа оқади. Узунлиги 26 км, ҳавзасининг майдони 25,6 км². Бош қисмида Эрикўл деб аталади. Ислоттепа яқинида Қорадарёга қуйилади. Сувнинг асосий қисми эрта баҳорда ўтади. Баҳор ва ёз бошларида сойдан сел келади. Оқсой водийсида яйловлар бор.

⁴ Сазағонсой – Самарқанд вилоятидаги Нуробод туманига қарашли Сазағон қишлоғи ёнидаги сой. Зарафшон тизмаси шимолий ён бағридан, Ўртабел доғи (баландлиги 1780 м) ёнидаги булоқдан бошланади. Узунлиги 27 км, ҳавзасининг майдони 32,8 км². Сазағон макони – Самарқанд шаҳри яқинидаги Сазағон қишлоғидан топилган неолит даври ёдгорлиги. 1964 йилда М. Жўракулов бошлиқ археолог олимлар томонидан топилган. Ҳозирги кунгача давом этаётган тадқиқотлар натижасида макондан тоғли жамоаларга хос бўлган қўшлаб тош қуроллар топиб ўрганилган, улар фанда «Сазағон маданияти» деб ном олган.

⁵ Жом – Самарқанд вилоятининг Нуробод туманига қарашли Қашқадарё вилоятининг Чирокчи туманига қўшни ҳудудда жойлашган бир неча қишлоқлар мажмуаси ёки йирик қишлоқ. Жом қишлоғида жойлашган Каттатепа ёзма манбаларда тилга олинган, араблар томонидан ёқиб юборилган ал-Мухтариқа қишлоғи билан локализация қилинган. Ёдгорлик ҳудудидан териб олинган археологик осори-атиқалар V – XIII асрлар билан даврланган. Қалқама дарёси водийсидан Каттатепагача бўлган масофа тоғли ҳудуддаги қайрилма йўللари ҳисобга олганда ўртача 24–26 км ни ташкил этади. Қалқама дарёси водийсидан, Йўрғабулоқсой бўйлаб Каттатепагача кетган йўл ҳозирда ҳам мавжуд бўлиб, унда қиш мавсумида ҳам қатнов тўхтамайди. Бу йўл Зарафшон тоғларининг жанубий этаклари бўйлаб йўналганлиги боис, унга доимо қуёш тушиб турган ва қиш мавсумида ҳам қор доимо эриб турган (Раимқулов А.А. Кеш – Самарқанд ўртасидаги йўللари хусусида // Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари. – Тошкент 2019. – Б. 161).

Janubiy Sug'd orasida joylashgan hudud nisbatan kam aholili cho'l va dasht (O'rtacho'l) hamda tog' (Zarafshon tog' tizmalari)dan iborat bo'lganligi ham bu hududdagi ilk o'rta asr aholi maskanlarining yozma manbalarda yetarlicha qayd etilmasligiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya .T-2010
2. Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // O'zbekiston tarixi. – 2005.
3. Sultonov F., Bozorboyev F .O'rta asrlar tarixi. Toshkent., Alisher Nasvoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007.
4. Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви. Тошкент-2012. 14 Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya .T-2010., B- 100 WWW.HUMOSCIENCE.COM 568
5. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(6), 46-49.
6. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 94-100. 7. uz.m.wikipedia .org
7. Smirnova O. I., Ocherki iz istorii Sogda, M., 1971;
8. Ishoqov M., Sug'diyona tarix chorrahasida, T., 1990;
9. Ishoqov M., Unutilgan podsholikdan xatlar, T., 1992;
10. Eshov B., Sug'diyona tarixidan lavhalar, T., 2002.